

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

KUZIEV RAVSHAN RAMAZANOVICH

**ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR FAOLIYATINI MOLIYAVIY
VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL
ASOSLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora (DSc)
po ekonomicheskim naukam**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Sciences (DSc)
on economical sciences**

Kuziev Ravshan Ramazanovich

Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning
konseptual asoslari3

Кузиев Равшан Рамазанович

Концептуальные основы развития деятельности свободных экономических
зон посредством финансовых инструментов35

Kuziev Ravshan Ramazanovich

Conceptual foundations for developing the activities of free economic zones
through financial instruments69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works75

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

KUZIEV RAVSHAN RAMAZANOVICH

**ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR FAOLIYATINI MOLIYAVIY
VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL
ASOSLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.1.DSc/Iqt855-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Jumayev Nodir Hosiyatovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **To'rayev Shavkat Shuxratovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ashurova Nasiba Batirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdullayev Zafar Alijonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **G.V.Plexanov nomidagi Rossiya**
iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "29" 11 soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.


Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "14" 11 kuni tarqatildi.

(2025 yil "14" 10 daqi 54 raqamli reestr bayonnomasi).




D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


I.X. Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent


A.R. Norov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasiga annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahonda erkin iqtisodiy hududlar (EIH) faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish barqaror iqtisodiy o'sish va sanoatni modernizatsiya qilishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Oxirgi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida Xitoyda EIHlar orqali jalb qilingan investitsiyalar hajmi 2,4 trln AQSh dollaridan oshib, mamlakat sanoat ishlab chiqarishining 28 foizini ta'minlagan. Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa EIHlar faoliyati orqali yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy iqtisodiy o'sishning 16–18 foizini tashkil etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda klasterlashuv, infratuzilma moliyalashtiruv va fiskal qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan keng foydalanilib, EIHlar raqobatbardosh innovatsion industriyalarga aylantirilmoqda. O'zbekistonda 2024 yilda 28 ta EIHda 2 100 dan ortiq korxona faoliyat yuritgan bo'lib, ularning samaradorligini oshirish uchun moliyaviy vositalar diversifikatsiyasi va ularni tizimli boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Jahon amaliyotida EIHlar faoliyatida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularning barqarorligi va investitsion jozibadorligini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari tomonidan EIHlar uchun alohida moliyalashtirish modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda byudjetdan tashqari moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynamoqda. Ilmiy izlanishlar ushbu yo'nalishdagi moliyaviy samaradorlikni aniqlash, risklarni tahlil qilish va strategik yondashuvlarni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Natijada, EIHlar faoliyatini ilmiy asoslangan moliyaviy mexanizmlar orqali optimallashtirish milliy iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi sifatida ko'rilmoqda.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda moliyaviy vositalarning samaradorligini oshirish, ularni kompleks iqtisodiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilish dolzarb masalaga aylangan. Bugungi kunda ushbu hududlarda faoliyat yuritayotgan subyektlarning investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish uchun infratuzilmaviy moliyalashtirish, budjetdan tashqari manbalarni safarbar etish va kredit resurslarining qayta taqsimlanishini ta'minlash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Erkin iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va texnologik modernizatsiyani ilgari surish uchun moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish, shu jumladan, institutsional moliyalashtirish vositalari, investitsiya xavfini pasaytiruvchi moliyaviy kafolatlar va xalqaro donorlar bilan hamkorlikdagi grant mexanizmlarini kengaytirish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, EIHlar faoliyatini institutsional asosda moliyalashtirishni takomillashtirish va uning konseptual modelini ishlab chiqish milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 26-oktabrdagi PF-5270-son "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada faollashtirish va

samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 28-avgustdagi PF-6061-son "Erkin iqtisodiy zonalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 17-martdagi PF-27-son "Davlat moliyasi tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda PQ-4477-son "Investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi, 2023-yil 5-apreldagi PQ-110-son "Erkin iqtisodiy hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 10-avgustdagi PQ-3518-son "Erkin iqtisodiy zonalarda eksportga yo'naltirilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-oktabrdagi 878-son "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 26-iyuldagi 615-son "Erkin iqtisodiy zonalarining infratuzilmasini rivojlantirishni moliyalashtirish mexanizmlari to'g'risida"gi, 2023-yil 21-avgustdagi 451-son "Erkin iqtisodiy zonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish masalasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan keng o'rganilmoqda. Jumladan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi huzuridagi Fiskal masalalar bo'yicha departament, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining Investitsiyalar va Erkin zonalar bo'yicha ekspert guruhi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO), Jahon bankining Raqobatbardoshlik va innovatsiyalar bo'limi, shuningdek, Singapur Milliy Universiteti huzuridagi Erkin savdo hududlari instituti, Polsha Iqtisodiyot universitetining Yevropa moliyaviy infratuzilmasi bo'limi, Turkiyaning Marmara universiteti Ilmiy tadqiqot markazi, va Janubiy Koreyaning KDI (Korea Development Institute) innovatsion infratuzilma va erkin iqtisodiy zonalar tahliliga ixtisoslashgan bo'limlari tomonidan ushbu yo'nalishdagi dolzarb ilmiy ishlanmalar olib borilmoqda.¹

¹ OECD (2023). Investment Promotion and Free Zones: Policy Approaches and Practical Experiences. OECD Publishing. — <https://www.oecd.org/publications/investment-promotion-and-free-zones-8d5f4c77-en.htm>; UNIDO (2024). Industrial Development Report 2024: Structural Transformation and Industrial Policy. — <https://www.unido.org/sites/default/files/unido-publications/2024-06/Industrial%20Development%20Report%202024.pdf>; World Bank (2023). Special Economic Zones: An

Erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga oid dolzarb masalalar bo‘yicha jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar asoslab berilgan: erkin iqtisodiy zonalarga yo‘naltirilgan davlat moliyaviy kafolatlari hududiy sanoat klasterlari rivojini jadallashtirishga xizmat qilishi aniqlangan (Jahon bankining Raqobatbardoshlik va innovatsiyalar bo‘limi); erkin zonalarga investitsiya jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish vositalarining samaradorligi Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi asosida asoslab berilgan (KDI – Korea Development Institute, Marmara universiteti); erkin iqtisodiy hududlarda infratuzilmani rivojlantirish uchun ajratilayotgan grant va subsidiyalarning iqtisodiy samarasi nafaqat sarmoya hajmiga, balki moliyaviy boshqaruv sifati va institutsional islohotlarga bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan (UNIDO); moliyalashtirish mexanizmlarini mahalliyashtirish orqali investitsiyaviy barqarorlikni kuchaytirish mumkinligi Yevropa Ittifoqining Polsha tajribasi asosida tahlil qilingan (Polsha Iqtisodiyot universiteti); erkin iqtisodiy zonalarining fiskal yuki yengil bo‘lgan korxonalarini qo‘shimcha kredit va kafolatli moliyaviy vositalar bilan ta‘minlash ularning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti – OECD).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali qo‘llab-quvvatlashning alohida nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar – M.Porter, J.Stiglitz, D.Rodrik, P.Krugman, J.Sachs, A.Smith, K. Ohmae, X. Chen, A.Plyosovskix, V.Inozemtsev, N.Yegorov, I.Mayorov, G.Belyakov, L.Shishkin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilingan². Ushbu olimlar o‘z ishlarida erkin zonalarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, ularning investitsiyaviy va fiskal rag‘batlantirish mexanizmlari, moliyaviy infratuzilma vositalari orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatlari

Operational Review of Their Impacts. — <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/38175>; IMF (2020). Socio-Economic Spillovers from Special Economic Zones: Evidence from Cambodia. Working Paper No. 20/220. — <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2020/08/21/Socio-Economic-Spillovers-from-Special-Economic-Zones-Evidence-from-Cambodia-49679>.

² Michael Porter. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, 1990, vol. 68, issue 2, 73–93.; Joseph Stiglitz. Globalization and Its Discontents. Journal of Policy Modeling, 2002, vol. 24, issue 5, 491–498.; Dani Rodrik. Institutions for High-Quality Growth: What They Are and How to Acquire Them. Studies in Comparative International Development, 2000, vol. 35, issue 3, 3–31.; Paul Krugman. Increasing Returns and Economic Geography. Journal of Political Economy, 1991, vol. 99, issue 3, 483–499.; Jeffrey Sachs. Institutions Matter, but Not for Everything: The Politics of Growth and Development. Finance & Development, 2003, vol. 40, issue 3, 38–41.; Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: Methuen & Co., Ltd., 1904, Book IV, Chapter 2, 181–208.; Kenichi Ohmae. The Borderless World: Power and Strategy in the Interlinked Economy. Journal of International Affairs, 1990, vol. 44, issue 1, 191–205.; Xiangming Chen. From Follower to Leader: China’s Development of Special Economic Zones and Its Global Impact and Lessons. The European Financial Review, December/January 2019–2020, pp. 22–29.; A.Plyosovskix. Rossiyaning maxsus iqtisodiy zonalarini rezidentlarning qarorlarini bashoratlash va rezidentlar avlodini shakllantirish jarayonini modellashtirish. Journal of Applied Economic Research, 2023, vol. 22, issue 2, 323–354. DOI: 10.15826/vestnik.2023.22.2.014; В.Иноземцев. Современная экономика: Институциональные основы и стратегии развития. Экономика и управление, 2011, №3, с. 5–14.; Н.Егоров. Институциональные механизмы развития свободных экономических зон в России. Вопросы экономики, 2015, №6, с. 89–96.; И.Майоров. Инвестиционная привлекательность свободных экономических зон: теория и практика. Региональная экономика, 2017, №12, с. 22–30.; Г.Беляков. Экономические зоны: мировой опыт и российская практика. Мировая экономика и международные отношения, 2016, №7, с. 45–53.; Л.Шишкин. Государственное управление развитием особых экономических зон: теория и практика. Управление экономическими системами, 2019, №3, с. 61–72.

hamda moliyaviy oqimlarni strategik boshqarish masalalarini chuqur o'rganganlar.

M.Porter erkin iqtisodiy hududlarda sanoat klasterlarini shakllantirish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqqan³. J.Stiglitz esa erkin zonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlat aralashuvi va institutsional muvofiqlikning ahamiyatini asoslagan⁴.

V.Inozemtsev erkin iqtisodiy hududlarda investitsiyalarni moliyalashtirishda soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi, davlat-xususiy sheriklik modeli va kafolatli moliyalashtirish vositalari orqali resurslarni jalb etish mexanizmlarini tahlil qilgan⁵. K.Ohmae esa global iqtisodiy integratsiya sharoitida erkin zonalarining xalqaro moliyaviy oqimlar uchun tranzit markaz sifatida shakllanish jarayonlarini va buning uchun zarur bo'lgan moliyaviy infratuzilma talablarini chuqur o'rgangan. Mazkur tadqiqotlar dissertatsiya mavzusining ilmiy asoslanishiga zamin yaratadi⁶.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.Haydarov, J.Karimqulov, J.Umirzoqov, S.Mirzalieva, N.Karimov, S.Bozarov, Sh.Eshqobilov, D.To'xtamurodov, Sh.To'rayev, B.Rashidov, A.Eraliyev va boshqalarning tadqiqotlarida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etish tamoyillari, ularning investitsion muhitga ta'siri, moliyaviy rag'batlantirish vositalarining iqtisodiy samaradorligi va zonalarda soliq yengilliklarining davlat moliyasi va eksport salohiyatiga ta'siri kabi masalalarni atroflicha o'rganishgan⁷.

Jumladan, J.Karimqulov erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'nalishlarini o'rganar ekan, xorijiy kapital oqimini jadallashtirish uchun huquqiy va institutsional mexanizmlarni optimallashtirish hamda zamonaviy

³ Michael Porter. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, 1990, vol. 68, issue 2, 73–93.

⁴ Joseph Stiglitz. Globalization and Its Discontents. Journal of Policy Modeling, 2002, vol. 24, issue 5, 491–498.

⁵ В.Иноземцев. Современная экономика: Институциональные основы и стратегии развития. Экономика и управление, 2011, №3, с. 5–14.;

⁶ Kenichi Ohmae. The Borderless World: Power and Strategy in the Interlinked Economy. Journal of International Affairs, 1990, vol. 44, issue 1, 191–205.

⁷ N.Haydarov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003.; J.Karimqulov. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2019.; J.Umirzoqov. "Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti jozibadorligini baholash metodologiyasi" mavzusidagi iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025.; S.Mirzalieva. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning xorij tajribasi. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2001.; N.Karimov. Xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etish va ularni moliyalashtirish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 1998.; S.Bozarov. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018.; Sh. Eshqobilov. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishda jahon tajribasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, vol. 2, issue 5/2, 286–291.; D.To'xtamurodov. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishni boshqarishning samaradorligi. Qo'qon universiteti xabarnomasi (Economy), 2023, №9. DOI: 10.54613/ku.v9i9.839.; Sh.To'raev. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. – Toshkent, "Akademiya", 2002. – 204 b.; B. Rashidov. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlil. TSUE ilmiy elektron jurnali, 2022.; A.Eraliyev. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023, vol. 1, issue 7, 80–83. DOI: 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp 80-83.

boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurligini ta’kidlagan⁸. J.Umirzoqov maxsus iqtisodiy zonalarida investitsion faollikni oshirish istiqbollarini tadqiq etib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va ularning samaradorligini monitoring qilish mexanizmlarini taklif etgan⁹.

S.Mirzaliyeva esa xorij tajribasini tahlil qilib, erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, soliq va bojxona imtiyozlarini muvozanatli qo’llash hamda ilg’or boshqaruv modellari orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirish muhimligini ko’rsatib bergan¹⁰. A.Eraliyev esa erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalarini yoritib, investorlar uchun qulay muhit yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirish bo’yicha amaliy takliflar ishlab chiqqan¹¹. Ushbu tadqiqotlar dissertatsiya mavzusining milliy ilmiy asosini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, respublikamizda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali qo’llab-quvvatlashda nafaqat soliq va bojxona imtiyozlari, balki investitsion grantlar, davlat kafolatlari, infratuzilmaviy moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi tashabbuslarni moliyalashtirish kabi vositalarning qo’llanilish mexanizmlari, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasi hamda moliyaviy ta’minot infratuzilmasini rivojlantirishning tizimli yondashuvlari respublika miqyosida dissertatsion tadqiqot sifatida yetarli darajada o’rganilmaganligi ushbu muammoni chuqur ilmiy tahlil qilishni talab etadi va natijada dissertatsiya mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo’ldi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O’zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga asosan ITM-3 “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, bank va buxgalteriya hisobi tizimlarini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi tadqiqot yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O’zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning konseptual asoslarini takomillashtirish va ularni moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo’yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkin iqtisodiy hududlar tushunchasining nazariy asoslari va iqtisodiy rivojlanishdagi rolini aniqlash, konseptual model va institutsional-fiskal yondashuvlarni belgilab berish;

⁸ J. Karimqulov. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo’nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2019.

⁹ J. Umirzoqov. Maxsus iqtisodiy zonalarida investitsiya muhiti jozibadorligini baholash metodologiyasi. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025.

¹⁰ S. Mirzaliyeva. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning xorij tajribasi. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2001.

¹¹ A. Eraliyev. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023, vol. 1, issue 7, 80–83. DOI: 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp80-83.

mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilish jarayoni va ularning milliy iqtisodiyotga ta'sirini baholash;

xalqaro amaliyotda erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ilg'or tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish istiqbollari belgilab berish;

erkin iqtisodiy hududlardagi moliyaviy vositalar va investitsiyalar manbalarini tahlil qilish;

erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash;

erkin iqtisodiy hududlarda soliq yukini optimallashtirish va fiskal tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilish;

erkin iqtisodiy zonalariga berilgan soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qilish;

erkin iqtisodiy hududlarni barqaror moliyaviy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

erkin iqtisodiy hududlarda moliyaviy rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha konseptual yondashuvlar va strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini soliqlar vositalari orqali qo'llab-quvvatlash va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari olingan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish, ularni moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada empirik tahlil, guruhlash, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirish, iqtisodiy-matematik usullar, jumladan, ko'p omilli regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

norezident subyektlar uchun daromad hajmi 10 milliard so'mdan oshmagan hollarda soliq stavkasini 50 foizga kamaytirish, uni yer qa'ridan foydalanganlik va aksiz solig'i to'lovchilari, faoliyati tugatilgan subyektlar hamda daromadlarni bo'lib ko'rsatish holatlariga tatbiq etmaslik shartlarini belgilash orqali soliq yukini maqbullashtirishga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan;

eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'i nazar qo'llanilishi taklif etilgan;

xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari doirasida tashqi infratuzilmani yaratish bo'yicha xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish mexanizmini joriy etish tartibini belgilovchi taklif ishlab chiqilgan;

yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy hududlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan bo'sh yer

maydonlarini sanoat, transport va aloqa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkazish orqali ularga soliq imtiyozlarini berish taklif etilgan;

maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga orte'qcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini 7 kun ichida qoplab berish hamda kameral soliq tekshiruvi orqali ushbu summa asossiz qoplangani aniqlansa, uni belgilangan tartibda undirish mexanizmini joriy etish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

erkin iqtisodiy hududlarning samaradorligini oshirish uchun soliq adaptatsiyasi, institutsional uyg'unlik, raqamli integratsiya va innovatsion klasterlashuvni o'zaro uyg'unlashtiruvchi integral institutsional-fiskal model ishlab chiqilgan;

erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining moliyalashtirish tarkibi ilmiy jihatdan asoslanib, mahalliy resurslar va xorijiy kapital uyg'unligini ta'minlovchi muvozanatli hamkorlik modeli taklif etilgan;

xalqaro tajribada erkin iqtisodiy hududlarning fiskal-institutsional mexanizmlari qiyosiy tahlili asosida O'zbekiston sharoitida eksport salohiyatini kengaytirish, xorijiy investitsiyalar oqimini jadallashtirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni barqaror ta'minlovchi konseptual model parametrlari asoslab berilgan;

investitsiya oqimlarining barqarorligi hamda kapital rentabelligining oshirilishini ta'minlovchi innovatsion mexanizm sifatida erkin iqtisodiy hududlarda moliyaviy vositalarning diversifikatsiyalashgan institutsional modeli konseptual asoslab berilgan;

erkin iqtisodiy hududlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlash mexanizmlari nazariy-amaliy asosda tizimli baholanib, ularning hajmi, tarkibiy diversifikatsiyasi va hududiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuv ishlab chiqilgan;

erkin iqtisodiy hududlarda soliq yukini optimallashtirish va fiskal tartibga solish mexanizmlarini baholashning nazariy-amaliy metodologiyasi ishlab chiqilib, u orqali soliq yukining iqtisodiy samaradorlik va hududlar rivojlanishiga ta'siri ilmiy asosda aniqlab berilgan;

erkin iqtisodiy zonalarda qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashning konseptual-nazariy asoslari ishlab chiqilib, ularning investitsion oqimlarni jadallashtirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy yondashuv taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi, Hisob Palatasi, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, ishda keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish, ularni moliyalashtirish va iqtisodiy rag‘batlantirish yo‘nalishlarini ilmiy asosda takomillashtirishga, shuningdek ushbu sohadagi nazariy tushunchalar va ilmiy yondashuvlar apparatini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalarni erkin iqtisodiy hududlarni moliyalashtirish tizimini isloh qilish, investitsion faollikni rag‘batlantirish, fiskal siyosatni hududiy darajada samarali tashkil etish amaliyotida qo‘llash imkoniyati, hamda ushbu yo‘nalishdagi keyingi ilmiy tadqiqotlarni olib borish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning konseptual asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

norezident subyektlar uchun daromad hajmi 10 milliard so‘mdan oshmagan hollarda soliq stavkasini 50 foizga kamaytirish, uni yer qa‘ridan foydalanganlik va aksiz solig‘i to‘lovchilari, faoliyati tugatilgan subyektlar hamda daromadlarni bo‘lib ko‘rsatish holatlariga tatbiq etmaslik shartlarini belgilash orqali soliq yukini maqbullashtirishga qaratilgan takliflari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 337-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 13-fevral 15-17133-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, 2024-yilda norezidentlarga xizmat ko‘rsatuvchi doimiy muassasalarning soliq yuki yengillashtirilib, mamlakatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar ta‘sirida xizmatlar eksporti 16,3 foizga oshgan;

eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko‘rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat‘i nazar qo‘llanilishi yuzasidan berilgan taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O‘RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 464-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 13-fevral 15-17133-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha tovarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlari umumiy daromadning 15 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etsa degan so‘zlari o‘rniga, tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromadlar almashtirish orqali xizmatlar eksportining yalpi hajmdagi ulushi 36 foizdan 38 foizga ko‘tarilishiga va mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligi sezilarli darajada oshishiga erishilgan;

xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari doirasida tashqi infratuzilmani yaratish bo‘yicha xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish mexanizmini joriy etish tartibini belgilovchi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat

tomonidan qoplab berish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi VMQ-306-son Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 13-fevral 15-17133-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 dekabrda Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4929-son Qarorining 4-bandida belgilangan: "To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish maqsadida qiymati 250 milliard so'm miqdordan oshadigan xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarining davlat tomonidan qoplab berish tartibi to'g'risida"gi Nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasini ijrosini ta'minlash maqsadida tadqiqotchi tomonidan "Xorijiy va mahalliy investorlarning qiymati 200 milliard so'mdan oshadigan investitsiya loyihalarini zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi Nizom ishlab chiqilgan;

yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy hududlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan bo'sh yer maydonlarini sanoat, transport va aloqa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkazish orqali ularga soliq imtiyozlarini berish yuzasidan bergan takliflari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-yanvardagi PQ-3-son qarorida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 13-fevral 15-17133-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, erkin iqtisodiy zonasi hududini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda import o'rnini bosuvchi, eksportbop ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish maqsadida 2023-2024 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l infratuzilmasi bilan ta'minlash lozim bo'lgan ob'ektlar ro'yxatini shakllantirilgan va Romitan tumanidagi 200 gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan bo'sh turgan yaylov va bo'sh yer maydonlarini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkazilgan, hamda ularga soliq imtiyozlar berilgan;

maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini 7 kun ichida qoplab berish hamda kameral soliq tekshiruvi orqali ushbu summa asossiz qoplangani aniqlansa, uni belgilangan tartibda undirish mexanizmini joriy etishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 sentabrda "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5243-son Qarorida aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 13-fevral 15-17133-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2022–2023 yillarda mazkur mexanizm orqali korxonalar ixtiyoriga 2,1 trln. so'mdan ortiq mablag' tezkor ravishda qaytarilgan, bu esa ularning aylanma kapitalini to'ldirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta maqola (9 ta mahalliy va 2 ta xorijiy nashrlarda) va 6 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 272 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida erkin iqtisodiy hududlar tushunchasining nazariy asoslari va iqtisodiy rivojlanishdagi roli, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilish jarayoni va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri, xalqaro amaliyotda erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ilg'or tajribalari va ularni mamklakatimizda foydalanish istiqbollari kabi masalalar yoritilgan.

Milliy iqtisodiyotning globallashtirish sharoitidagi integratsiyasini ta'minlash hamda transchegaraviy kapital oqimlarini jalb etishni faollashtirish maqsadida davlat tomonidan innovatsion iqtisodiy mexanizmlar majmuasi qo'llaniladi. Ushbu mexanizmlar ichida investitsiya ekotizimini transformatsiya qiluvchi strategik platforma sifatida erkin iqtisodiy hududlar (EIH) alohida o'rin egallaydi. EIHlar orqali bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun maxsus rag'bat choralari asosida soliq va bojxona yengilliklari, institutsional soddalashtirish hamda yuqori konnektivlik darajasi yaratiladi.

Mazkur yo'nalishda xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular orasida polemik qarashlar ham mavjud. Masalan, iqtisodchi olim Paul Krugman fikriga ko'ra: "Erkin iqtisodiy hududlar transport xarajatlarini kamaytirish va resurslarni bir joyga to'plash orqali qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Biroq, faoliyatning ma'lum hududlarda to'planishi milliy iqtisodiyotda hududlar o'rtasida nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkin"¹². Uning nazariy yondashuviga ko'ra, EIHlar iqtisodiy o'sishni markazlashtirishga xizmat qilsa-da, mintaqalar o'rtasidagi tengsizlikni kuchaytirish xavfi mavjud. Amerikalik iqtisodchi Jeffrey Sachs fikriga ko'ra: "EIHlar Xitoy iqtisodiyotida tashqi investitsiya va texnologiyalar importini ta'minlovchi hal qiluvchi institutsional mexanizm hisoblanadi. Ushbu modelni

¹² Paul Krugman. Increasing Returns and Economic Geography. Journal of Political Economy, 1991, vol. 99, issue 3, 483–499.;

boshqa mamlakatlarga ko‘r-ko‘rona ko‘chirib bo‘lmaydi”¹³. Olim fikrining izohi shundan iboratki, EIHlar har bir mamlakatning institutsional salohiyati va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Mazkur xalqaro yondashuvlar asosida mahalliy olimlar ham EIHlar xususida o‘z qarashlarini ilgari surganganlar. D. To‘xtamurodov fikriga ko‘ra: “EIHlarda soliq va bojxona preferensiyalari faoliyat yuritayotgan sub’ektlar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini yaratadi. Soliq preferensiyalari — raqobatbardosh mahsulot va eksport ko‘lamini kengaytirish uchun muharrik vazifasini bajaradi”¹⁴. B.Rashidov esa: “O‘zbekistondagi EIHlar investitsiya jalb etishda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, ularda samaradorlikka asoslangan soliq monitoringi yetarli emas”¹⁵. U o‘z tadqiqotida KPI ko‘rsatkichlari, soliq imtiyozlari samaradorligi va investitsiya natijadorligini chuqur tahlil qilish mexanizmini joriy etish zarurligini ilgari suradi.

Erkin iqtisodiy hududlar konsepsiyasi xalqaro ilmiy adabiyotda turlicha talqin etilib, ularning mohiyati, maqsadlari va institutsional-fiskal mexanizmlari iqtisodiy geografiyadan tortib global qiymat zanjiri nazariyasigacha bo‘lgan keng qamrovli ilmiy yo‘nalishlar bilan asoslanadi. Tadqiqotda shakllantirilgan integral institutsional-fiskal yondashuv esa EIHlar samaradorligini ta‘minlovchi o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy mexanizmlar majmuasi sifatida qaraladi.

1-jadval

Mualliflik yondashuv doirasida EIH samaradorligini belgilovchi asosiy mexanizmlar tizimi¹⁶

Omillar	Xalqaro va mahalliy olimlar	Amaliy mohiyati
Soliq siyosatini moslashuvi	Zeng, Farole, Bozorov A.A.	Soliq imtiyozlari samaradorlik asosida KPI bilan qayta baholanadi.
Institutsional uyg‘unlik	Lin, Farole, Islomov B.I.	EIHlar milliy siyosat, byudjet, kadrlar va infratuzilma bilan integratsiya qilinadi.
Raqamli integratsiya	Baldwin, Rahmonberdiev U.R.	Raqamli qiymat zanjiri elektron nazorat va yekommersiyani rivojlantirib, soliq tizimini takomillashtiradi.
Innovatsion tarmoqlar	Krugman, Xojimatov H.A.	Texnologik klasterlar yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirib, eksportni kuchaytiradi.

Mualliflik yondashuvda taklif etilgan to‘rt komponent EIHlarning soliq, institutsional, raqamli va innovatsion mexanizmlarini uyg‘unlashtirib, investitsiya muhiti, texnologik modernizatsiya va eksport salohiyatini qo‘llab-quvvatlovchi integrallashgan boshqaruv modelini shakllantiradi. Tadqiqot esa zamonaviy EIHlar samaradorligi soliq imtiyozlaridan tashqari global raqobat, texnologik

¹³ Jeffrey Sachs. Institutions Matter, but Not for Everything: The Politics of Growth and Development. Finance & Development, 2003, vol. 40, issue 3, 38–41.

¹⁴ D. To‘xtamurodov. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishni boshqarishning samaradorligi. Qo‘qon universiteti xabarnomasi (Economy), 2023, №9. DOI: 10.54613/ku.v9i9.839;

¹⁵ B. Rashidov. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlarini ekonometrik tahlil. TSUE ilmiy elektron jurnali, 2022.;

¹⁶ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

transformatsiya va institutsional barqarorlikni talab qiluvchi kompleks yondashuvlarga tayanishi zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval

ElHlar samaradorligiga ta'sir etuvchi modellar: mualliflik yondashuvi va mavjud konsepsiyalar taqqoslamasi¹⁷

Mavjud yondashuvlar	Kamchiliklari	Mualliflik yondashuvining afzalliklari
Faqat soliq imtiyozlariga asoslangan	Imtiyozlar joriy etilganda ularning uzoq muddatli barqarorlikka va davlat byudjetiga ta'siri yetarlicha hisobga olinmaydi. Agar bu imtiyozlar samara bermasa, ElHlar faqatgina "imtiyozlarga bog'liq hudud" sifatida namoyon bo'lib qolishi mumkin.	Soliq siyosati KPI asosida dinamik ravishda shakllanadi. Har bir imtiyoz fiskal samaradorlik, eksport, ish o'rinlari kabi ko'rsatkichlar asosida baholanadi.
Institutsional uyg'unlashuvga moslashmagan ElH	ElHlar milliy siyosat va strategik iqtisodiy yo'nalishlardan uzilib qolgan taqdirda, institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlarida izchillik buziladi. Natijada, bu holat hududiy va milliy darajadagi iqtisodiy samaradorlikning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini cheklaydi.	ElHlar milliy islohotlar, davlat investitsiya siyosati va hududiy rivojlanish dasturlari bilan uyg'un ravishda boshqariladi. Institutsional vertikal integratsiya ta'minlanadi.
Raqamli infratuzilmasiz ElH	Soliq va eksport monitoringida shaffoflik past, tadbirkorlik muhitida ma'lumotlar asimmetriyasi saqlanib qoladi. Boshqaruvda tezroq yetishmaydi.	Raqamlashtirilgan ekotizim - Big Data, elektron soliq monitoringi, ye-kommersiya platformalari, raqamli KPI indikatorlar orqali real vaqtda boshqaruv amalga oshiriladi.
Hududiy ehtiyojlardan ajratilgan	Hududiy va mahalliy ehtiyojlar hisobga olinmasligi natijasida ElHlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri cheklangan bo'ladi.	Mualliflik yondashuv mahalliy boshqaruv organlari, jamoatchilik ishtirokini va loyihaviy boshqaruv mexanizmlarini integratsiyalashni nazarda tutadi.
Sarmoya oqimiga biryozlama yo'naltirilgan modellar	Texnologik transfer va milliy ishlab chiqarish zanjiri shakllanmaydi, ichki imkoniyatlar yetarlicha faollashtirilmaydi.	Mualliflik modeli ichki resurslar va milliy biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan klasterlashgan, texnologik va innovatsion yondashuvni o'z ichiga oladi.

Keltirilgan ma'lumotlar zamonaviy global raqobat sharoitida ElHlarni boshqarish faqat an'anaviy soliq imtiyozlari bilan chegaralanmasligini ko'rsatadi. Mualliflik konsepsiyasi esa bunday soddalashtirilgan yondashuvdan farqli ravishda institutsional sinergiya, fiskal-indikativ tartib, raqamli ekotizim boshqaruvi va klasterlashgan innovasiya mexanizmlariga tayanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarini strategik maqsadlar asosida shakllanib, tashqi savdoni rivojlantirish, valyuta tushumlarini oshirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Multisektorli

¹⁷ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

integratsiya modeli asosida faoliyat yuritishi esa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va innovasion texnologiyalarni joriy etish jarayonlarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.



1-rasm. Zamonaviy erkin iqtisodiy zonalar tasnifi¹⁸

Tadqiqot natijalari ko'ra, mamlakatimizning "Navoiy" EEZning investitsiyaviy jozibadorligi, eksport salohiyati va hududiy iqtisodiy transformatsiyada tutgan o'rni sezilarli darajada kuchayayotganidan dalolat beradi. Ushbu zona — ilg'or texnologiyalarni joriy etish, fiskal rag'batlar orqali kapital aylanishini tezlashtirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni klaster shaklida tashkil etish bo'yicha muvaffaqiyatli model sifatida e'tirof etilmoqda.

3-jadval

"Navoiy" EIZda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy investitsiya ko'rsatkichlari¹⁹

Yillar	EIZ ishtirokchi subyektlar soni	Jami investitsiya miqdori (mln.doll)	Shundan:			Ish o'rni
			O'z mablag'i hisobidan	Bank krediti hisobidan	To'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan	
2020	25	200,9	75,3	74,6	51,0	1803
2021	27	291,7	110,2	109,3	72,2	2114
2022	29	253,4	95,7	95,1	62,6	2356
2023	30	305,3	112,8	119,4	73,1	2419
2024	31	326,4	123,1	121,8	81,5	2670

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024 yillarda "Navoiy" EIZdagi investitsiya loyihalari hajmi va sifati izchil oshib, umumiy investitsiyalar 200,9 mln dollardan 326,4 mln dollarga yetgani hududning iqtisodiy salohiyatini mustahkamladi. Moliyalashtirish manbalarining muvozanatli taqsimlanishi va ish o'rinlarining 1803 tadan 2670 taga ko'payishi esa ko'p manbali moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini hamda investitsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini oshirganini tasdiqlaydi.

¹⁸ Rasm muallif tomonidan tuzildi.

¹⁹ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xalqaro iqtisodiy amaliyot tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, erkin iqtisodiy hududlarning samarali faoliyatini ta'minlash uchun kompleks va tizimlashgan chora-tadbirlar majmuasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan soliq-bojxona preferensiyalari, tashkiliy-huquqiy rejimlar va innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlovchi institutsional muhit yuqori natijalar berayotgani qayd etilmoqda. (4-jadval)

4-jadval

Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning xususiyatlariga ko'ra taqqoslama tahlili²⁰

Xususiyatlari	Rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar	Rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar
EIH larning asosiy turlari	Savdo, servis, texnik tatbiq etish, erkin bojxona EIH.	Sanoat-ishlab chiqarish; savdo zonalar.
Joylashuvi	Orolbo'yi, ichki, chegara hududlarida; portga yaqin, kommunikatsiya yaxshi rivojlangan, shaharlarda va shaharga yaqin hududlarda.	Orolbo'yi, ichki, chegara hududlarida; mamlakat ichida kam holatlarda tashkil etiladi.
Maqsadi	Ko'p hollarda mamlakatning mikroiqtisodiy maqsadlaridan kelib chiqadi va iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi.	Ko'p hollarda mamlakatning mikroiqtisodiy maqsadlaridan kelib chiqadi va makroiqtisodiy maqsadlariga bilvosita ta'sir etadi.
Investitsiya muhiti	Preferensiya va imtiyozlar nisbatan kam, to'siqlar mavjud emas.	Preferensiyalar va imtiyozlar tizimidan keng foydalaniladi, boshqaruvning alohida vositalari mavjud.
Bojxona tartiblari	Milliy bojxona hududidan tashqarida erkin savdo siyosati yoki mamlakat ichida anklav modelining mavjudligi.	Ko'pchilik EIH erkin savdo siyosatini yuritadi.
Boshqaruvi	Korxona, chegaraviy va davlatlararo hamkorlik yo'nalishi modelining mavjudligi.	Davlat, korxona va chegaraviy hamkorlik yo'nalishi modelining mavjudligi.

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, EIHlarda mahalliy va markaziy darajada soliq imtiyozlari va preferensiyalari, investitsiya uchun imtiyozli kredit liniyalari, savdo aylanmasi va mehnat resurslari soliqlarini pasaytirish amaliyoti hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirmoqda. Bu esa, hududiy iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar institutsional va fiskal mexanizmlar orqali global kapital oqimlarini jalb etuvchi hamda yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi platforma sifatida shakllanmoqda. Rivojlangan davlatlarda ular soliq va bojxona preferensiyalari orqali eksport faoliyatini rag'batlantirish va ishlab chiqarishni transmilliy qiymat zanjirlariga integratsiyalash imkonini bermoqda.

Dissertatsiyaning «O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari va investitsiyalar tahlili» deb nomlangan ikkinchi bobida erkin iqtisodiy hududlarda moliyaviy vositalar — fiskal imtiyozlar, kredit-sug'urta dasturlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari infratuzilma hamda logistika resurslari bilan integratsiyalashgan holda investitsion faollikni kuchaytirishi yoritiladi.

²⁰ Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Kredit institutlari va ventur moliyalashtirishning ishlab chiqarish klasterlarini qo'llab-quvvatlashi natijasida YAHM o'sish sur'atining 1,5–2 baravar tezlashgani iqtisodiy sub'yektlar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Sanoatning birlamchi, ikkilamchi va uchinchi sektorlarida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, xizmatlar savdosi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar salohiyatining oshishi esa EIHlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

5-jadval

Erkin iqtisodiy hududlardagi moliyaviy vositalar turlari va ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari²¹

Moliyaviy vosita turi	Qo'llanilish sohasi	Moliyaviy samaradorlik indeksi (ballda)	Kapital rentabelligi (%)	Risk darajasi (1–10)
Preferensial moliyalashtirish	Yirik sanoat loyihalari	8.2	12.5	4
Infratuzilma obligatsiyalari	Transport va kommunikatsiya	7.9	11.8	5
Subsidiyalashtirilgan kreditlar	Kichik biznes va servis	7.5	10.3	6
Sug'urta kapitali	Qishloq xo'jaligi va eksport	6.8	9.2	5
Ventur moliyalashtirish	Innovatsion startaplar	8.6	14.6	8
Moliyaviy inkubatorlar	Texnopark va EIZ ichki loyihalari	7.8	11.1	6
Raqamli grant platformalari	Ijtimoiy innovatsiyalar	7.1	10.7	7
Blokcheyn asosli smart-kontraktlar	Xalqaro savdo va logistika	8.4	13.8	7

5-jadval mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, erkin iqtisodiy hududlarda qo'llanilayotgan moliyaviy vositalar turlicha samaradorlik va risk darajasiga ega bo'lib, ular hududning rivojlanish mexanizmlarini belgilab beradi. Innovatsion yo'nalishlar — ventur moliyalashtirish va blokcheyn asosli smart-kontraktlar yuqori rentabellik orqali tez o'sish imkonini yaratsa-da, ularning risk darajasi yuqori bo'ladi, preferensial moliyalashtirish ba infratuzilma obligatsiyalari esa past risk sharoitida barqarorlik ba uzoq muddatli investitsion ishonchni ta'minlaydi.

Institutsional-pluralistik yondashuv erkin iqtisodiy hududlarni moliyalashtirishda davlat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar hamkorligi asosida xavflarni kamaytiruvchi barqaror moliyaviy arxitektura shakllanishini ta'minlaydi. EIZlarda davlat sarmoyasi, xususiy kapital va xorijiy investitsiyalarning uyg'unlashuvi differensial xavf-daromad nisbatlarini optimallashtirib, infratuzilma rivoji va investitsion samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi (6-jadval).

²¹ OECD. (2023, 7 dekabr). Financing Uzbekistan's Green Transition. OECD Publishing.

**O‘zbekiston EIZlarida investitsiya manbalari
(2020–2024 yillarda)²²**

Investitsiya manbasi	Qo‘llanilish sohasi	O‘rtacha ulushi (2020–2024, %)	Rentabellik darajasi (%)	Sarmoya barqarorligi (1–10)
Davlat investitsiyalari	Infratuzilma va energetika	27	9.8	10
Mahalliy xususiy sarmoya	Mahalliy ishlab chiqarish va servis	18	13.2	7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)	Eksport yo‘naltirilgan loyihalar	36	15.4	8
Davlat-xususiy sheriklik (DXSh)	Ijtimoiy-transport loyihalari	9	11.5	9
Transmilliy korporatsiyalar kapitali	Texnologik modernizatsiya	6	14.7	6
Xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘lari	Strategik sektorlarni qo‘llab-quvvatlash	4	10.2	9

2020–2024 yillardagi ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya manbalarining tarkibiy nisbatida TTXI va davlat investitsiyalari yetakchi o‘rin egallab, yuqori rentabellik va barqarorlik kombinatsiyasi orqali iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlariga aylangan. EIZda moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilishda davlatning roli ham muhim hisoblanadi, xususan, garantli investitsiya fondlari, imtiyozli kredit dasturlari va sug‘urta mexanizmlari asosida qo‘shimcha moliyaviy kafolatlar yaratiladi.

**Erkin iqtisodiy zonalarda moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish
imkoniyatlari²³**


Moliyaviy vosita	Qo‘llanilish sohasi	Afzalliklari	Mos sohalar (EIZ)
Korporativ obligatsiyalar	Yirik sanoat va infratuzilma loyihalari	Barqaror daromad va ommaviy sarmoya jalbi	Energetika, transport, logistika
Grantlar va subsidiyalar	Startaplar, KOB va ijtimoiy sohalar	Moliyaviy inklyuziya va resurs ko‘lamining kengligi	Agrobiznes, ta‘lim, tibbiyot
Venchur fondlar	Innovatsion texnologiyalar va yangi mahsulotlar	Yuqori rentabellik, risk bo‘lishuvi	Elektronika, IT, biotexnologiya
Sukuk (Islomiy obligatsiyalar)	Etik moliya, halol ishlab chiqarish	Halol moliyalashtirish modeli, shariah muvofiqligi	Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati
Blokcheyn asosidagi smart-kontraktlar	Avtomatlashtirilgan moliyaviy shartnomalar	Xavfsizlik, shaffoflik va tranzaksiya tezligi	Moliyaviy texnologiyalar (fintech)
Raqamli moliyaviy platformalar	Kichik loyihalar va investorlar platformasi	Quyidan yuqoriga kapital oqimi imkoniyati	Mahalliy ishlab chiqarish, xizmatlar
Kapital bozor IPO instrumentlari	Korxonalarining ommaviy kapital jalb etishi	Ochiq, institutsionallashtirilgan sarmoya shakli	Xalqaro kompaniyalar, korporatsiyalar

²² www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

²³ Jadval tadqiqot natijalari asosida keltirilgan.


7-jadvalda keltirilgan vositalar kapital resurslarining turli ko‘rinishlaridan iborat bo‘lib, ular sektorlar, investor profillari va risk darajalariga moslashtirilgan holda EIZlar uchun mos moliyaviy arxitektura shakllantiradi. Shu jumladan, korporativ obligatsiyalar institutsional investorlarga mo‘ljallangan barqaror kapital oqimini ta‘minlab, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi hamda daromad barqarorligi, kapital bozorida ishtirok va mulkchilikni saqlab qolish imkoniyatlarini yaratadi.

Mamlakatimizda 2024-yil yakuni bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 493,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 127,6% o‘shishni bildiradi va iqtisodiy faollikning izchil davom etayotganini anglatadi. Quyida ushbu investitsiyalarning manbalari va ularning iqtisodiy samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi.(2-rasm)



2-rasm. Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, trln. so‘m²⁴

2024-yilda asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 75,9 foizi jalb qilingan mablag‘lar hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatkich investitsion faollikda tashqi va ichki kreditlar, davlat kafolatlari ostida ajratilgan mablag‘lar, tijorat banklari, xalqaro moliya institutlari va xususiy sektor o‘rtasida mustahkam hamkorlik shakllanganini ko‘rsatadi.



3-rasm. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar²⁵

²⁴ www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

²⁵ www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Xorijiy kreditlar hajmi 1,5 trln. soʻmni tashkil etib, bu jami investitsiyalarning 10% iga tengdir. Ularning 10% ga oʻsishi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning faollashganini koʻrsatadi. Korxonalar tomonidan jalb etilgan 17,3 trln. soʻmlik investitsiyalar (34,6%) esa 148,6% oʻsish orqali ulardan iqtisodiy rivojlanishga qayta sarmoya kiritish jarayoni kuchayganini anglatadi.

8-jadval

Hukumat qarorlariga asosan erkin iqtisodiy zona ishtirokchilariga berilgan soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar toʻgʻrisida maʼlumot²⁶

№	Hujjat raqami	2020-yilda imtiyozdan foydalangan korxona		2021-yilda imtiyozdan foydalangan korxona		2022-yilda imtiyozdan foydalangan korxona		2023-yilda imtiyozdan foydalangan korxona		2024-yilda imtiyozdan foydalangan korxona	
		soni	Summasi, mln.soʻm	soni	Summasi, mln.soʻm	soni	Summasi, mln.soʻm	soni	Summasi, mln.soʻm	soni	Summasi, mln.soʻm
1.	PF-4059	31	27 245,4	32	28 342,5	34	29 560,8	35	30 148,6	38	34 501,2
2.	PF-4436	62	16 781,3	64	17 328,9	66	18 057,2	68	18 927,4	72	21 654,3
3.	PF-4516	38	33 956,8	39	35 218,4	41	36 794,6	43	38 341,9	47	42 672,5
4.	PF-4931	82	19 453,7	85	20 284,9	88	21 283,2	91	22 348,1	97	24 117,3
5.	PF-5032	19	4 987,9	20	5 321,4	21	5 702,8	22	6 142,5	25	6 918,7
6.	PF-5412	23	11 234,2	24	11 758,5	25	12 439,7	27	13 274,8	30	14 502,9
Jami		255	113 659,3	264	118 254,6	275	123 838,3	268	129 052,9	309	144 366,9

Soliq imtiyozlari EIZlarda korxonalarni jalb etish, investitsion faollikni kuchaytirish va ishlab chiqarish hamda eksportni kengaytirish orqali kapital qoʻyilmalarni ragʻbatlantiruvchi va yuqori qoʻshilgan qiymatli sanoat klasterlarining shakllanishiga xizmat qiluvchi strategik fiskal instrumentdir. 2020–2024 yillardagi tahlillar ushbu imtiyozlarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, investitsiya rentabelligini hamda xorijiy kapital oqimini oshirgani, shuningdek monitoring va baholash mexanizmlari orqali fiskal siyosat shaffofligi va EIZlarning raqobatbardosh rivojlanishini mustahkamlab berganini koʻrsatadi.

Dissertatsiyaning «**Erkin iqtisodiy hududlarning moliyaviy samaradorligi va uni oshirish yoʻllari**» deb nomlangan uchinchi bobida erkin iqtisodiy zonalariga berilgan soliq imtiyozlarining samaradorligi tahlili, erkin iqtisodiy hududlarni barqaror moliyaviy rivojlantirish strategiyasi yoʻnalishlari, erkin iqtisodiy hududlarning moliyaviy rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarni ekonometrik baholash mexanizmlari tahlil etilgan.

EIHLardagi soliq imtiyozlarini xolis baholash byudjet barqarorligini taʼminlash va ortiqcha xavflarni kamaytirish bilan birga, ularni investitsiya qaytimi, ish oʻrinlari, eksport va qoʻshilgan qiymat kabi mezonlar asosida tahlil qilish zaruratini belgilab, innovatsion faollik, investitsion oqimlar va sanoat diversifikatsiyasini kuchaytirish orqali hududlarning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

²⁶ Oʻzbekiston Respublikasi soliq qoʻmitasi maʼlumotlari.

9-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarda soliq imtiyozlarining natijalari
(2020–2024 yillar)²⁷

Yil	Soliq imtiyozlari summasi (trln so'm)	Yaratilgan yangi korxonalar (ta)	Yangi ish o'rinlari (mingta)	Eksport ulushi (%)	Investitsiya hajmi (trln so'm)
2020	1,2	320	7,8	21%	6,3
2021	1,8	430	9,2	25%	7,5
2022	2,5	510	10,8	28%	9,4
2023	3,2	655	12,1	33%	11,8
2024	4,7	820	15,3	37%	13,6

Izoh:

- Soliq imtiyozlari summasi – EIZ rezidentlariga berilgan umumiy soliq va bojxona imtiyozlari;
- Yaratilgan yangi korxonalar – yangi ro'yxatdan o'tgan EIZ ishtirokchilari soni;
- Yangi ish o'rinlari – faoliyat boshlagan loyihalar orqali yaratilgan ish joylari;
- Eksport ulushi – EIZ ishtirokchilari mahsulotining umumiy ishlab chiqarishdagi eksportga to'g'ri keladigan ulushi;
- Investitsiya hajmi – ichki va xorijiy investitsiyalar yig'indisi, EIZ doirasida jalb qilingan.

2020–2024 yillarda erkin iqtisodiy zonalarda berilgan soliq va bojxona imtiyozlari investitsion samaradorlikni kuchaytirib, sanoat klasterlari, innovatsion sinergiya, hududiy ixtisoslashuv va raqobatli eksport modelining shakllanishini jadallashtirdi, natijada eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushi 12 foiz punktga, innovatsion loyihalar ulushi esa 1,7 barobarga oshdi. Mazkur jarayonlarning real iqtisodiy ta'sirini baholash uchun 2020–2024 yillarda EIZlardagi TXXI ishtirokidagi korxonalar faoliyati bo'yicha qayd etilgan statistik ko'rsatkichlar ushbu imtiyozlarning amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

10-jadval

TXXI asosidagi soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari²⁸

Yil	Imtiyozlangan TXXI korxonalar soni (ta)	Qayta investitsiya ulushi (%)	Zamonaviy uskuna asosidagi loyihalar (%)	Tashqi bozorga chiqqan korxonalar (ta)	O'rtacha investitsiya hajmi (mln \$)
2020	95	41%	46%	52	2,3
2021	128	48%	53%	71	2,7
2022	174	51%	59%	96	3,1
2023	229	54%	65%	123	3,7
2024	298	57%	72%	154	4,2

Jadvalda 2020–2024 yillar davomida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, tahlillar ushbu davrda fiskal rag'batlantirish choralarining investitsiyaviy faollik, innovatsion loyihalar ulushi ba qayta investitsiya ko'rsatkichlarini izchil oshirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining qo'llanish holati 11-jadval ma'lumotlari orqali respublikada EIZlar ishtirokchilari faoliyatining barqaror kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

11-jadval

Respublikada erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari tahlili²⁹

№	Imtiyoz turi	Yillar (mln.so'm)							
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	“Navoiy” EIZ, (02.12.2008, PF-4059)	13	16	19	21	21	23	26	28
2.	“Angren” EIZ, (13.04.2012, PF-4436)	9	10	9	10	11	12	13	14
3.	“Jizzax” EIZ (18.03.2013, PF-4516)	16	18	21	21	21	23	24	25
4.	“Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” EIZ, (12.01.2017, PF-4931)	1	1	2	3	3	4	5	6
5.	Farmsanoat EIZ qatnashchilari (03.05.2017, PF-5032)	1	1	1	2	2	3	4	4
6.	Qolgan EIZlar	2	4	5	6	6	7	8	9
JAMI		42	50	57	63	64	72	80	86

2017–2024 yillarda erkin iqtisodiy hududlarda soliq imtiyozlaridan foydalanish dinamikasi institutsional faollik va investitsion muhitning yaxshilanishi bilan izohlanadi. “Navoiy” va “Jizzax” hududlarida imtiyozlar hajmining yuqori darajada bo‘lishi ularning strategik tarmoqlarga ixtisoslashgani va kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan loyihalarni jalb qilayotganini ko‘rsatadi.

Erkin iqtisodiy hududlarning samarali rivoji uchun barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirish ba investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qiluvchi institutsional mexanizmlarni rivojlantirish muhimdir. EIZ rezidentlarining innovatsion imkoniyatlardan foydalanishi esa hududlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, investitsion o‘sish ba texnologik modernizatsiyani jadallashtiradi.

12-jadval

EIZlari ishtirokchilari investitsion faoliyatini samarali boshqarish sohasida investor kichik innovatsion korxonalarning kuchli va zaif tomonlari tavsifi³⁰

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
1.Innovatsion siklning qisqaligi	1.Menejment professional darajasining yetishmasligi
2.Hamkorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va personal aloqalarning mavjudligi	2.Tashqi moliyalashtirish, shu jumladan kreditlashtirish imkoniyatlarining yetishmasligi
3.Boshqaruv qarorlarining tez qabul qilinishi	3.Korxona diversifikatsion profilining cheklangan imkoniyatlari
4.Mehnatga rag‘batning yuqoriligi	4.Tadbirkorlik faoliyatidagi risklar darajasining sezilarli darajada ekanligi
5.Ustama xarajatlarning kamligi	5.Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi darajasining pastligi
6.Fan-texnika yutuqlaridan xabardorlikning yuqoriligi	6.Talabni qondirish ko‘lamlarining cheklangan imkoniyatlari
7.Iste‘molchi talabiga moslashish, bozorning o‘zlashtirilmagan sohalarini qidirib topishga intilish	7.Faoliyatning moliyaviy natijalariga shaxsiy ma’sullik
8.Korxonada byurokratik bo‘g‘inlarning mavjud emasligi	8.Korxona ko‘p sonli tarkibiy bo‘linmalari hamkorlikdagi faoliyatidan sinergetik samaraning mavjud emasligi
9.Menejment ierarxiyasining qisqaligi	

²⁹ : O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

³⁰ Muallif ishlanmasi.

Bugungi kunda EIHlarni barqaror moliyaviy rivojlantirish yangi zonalarini mikromodul asosida bosqichma-bosqich yaratish va mavjud hududlarni modernizatsiya qilishni талаб этади. Mikromodul yondashuvi risklarni kamaytirib, samarali o'rganish siklini shakllantirca, chegara va tranzit yo'laklariga yaqin joylashuv logistika xarajatlarini pasaytirib, eksport tezligini oshiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar institutsional dizayn va tartibga solish EIH strategiyasining asosiy "yadro mexanizmi" ekanini ko'rsatib, imtiyozlar kodifikatsiyasi, yagona muvofiqlashtiruvchi tuzilma va investorlar uchun ruxsat jarayonlarini soddalashtirishni talab qiladi. Strategik boshqaruv KPllarining raqamli monitoringi hamda riskga asoslangan soliq-bojxona nazorati shaffof, past tranzaksion xarajatli va barqaror investitsion muhitni shakllantiradi.

Erkin iqtisodiy hududlarda moliyaviy barqarorlikni baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya manbalari ulushi va rentabellik darajasi bilan bog'liq regressiya tenglamasi

$$y = 0.055672 \cdot x_1 - 0.59052 \cdot x_2 + 14.60059 \quad (R^2 = 0.8549)$$

rentabellik (x_2) koeffitsientining manfiy chiqishi sababli risk–return teskari munosabatini tasdiqlaydi va kapital tuzilmasini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Soliq imtiyozlari bo'yicha regressiya tenglamasi

$$y = 0.205907 \cdot x_1 - 0.898502 \cdot x_2 - 111.814 \quad (R^2 = 0.9869)$$

umumiy investitsiyalar va xorijiy kapital ulushi soliq imtiyozlari darajasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini, modelning yuqori aniqligi esa fiskal rag'batlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Eksport operatsiyalari bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq mexanizmini ifodalovchi tenglama

$$y = -0.02318 \cdot x_1 + 1.953777 \cdot x_3 + 15.99216 \quad (R^2 \approx 1)$$

eksport hajmi ortishi bilan imtiyozlar hajmining deyarli mutanosib o'sishini bildiradi va EIHlarda raqamlashtirilgan fiskal boshqaruv orqali eksportga yo'naltirilgan siyosatning samaradorligini kuchaytirishini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning «**Erkin iqtisodiy hududlarning moliyaviy rivojlanishi va strategik takomillashtirish yo'llari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida erkin iqtisodiy hududlarda moliyaviy rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha konseptual yondashuvlari va erkin iqtisodiy hududlarning barqaror moliyaviy rivojlanishining strategik yo'nalishlari tadqiq qilingan.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy yangiliklar aynan shu muammolarni bartaraf etishga qaratilib, EIHlarning konseptual rivojlanish asoslarini takomillashtirish, institutsional-fiskal imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy vositalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishni ta'minlaydi:

1. Doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar belgilangan soliq stavkasini 50 foizga pasaytirishga haqligi, soliq to'lovchi soliq to'lashga o'tgan yildan keyingi bir soliq davri mobaynida, basharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrida soliq to'lovchining jami daromadi o'n milliard so'mdan oshmasa soliq stavkasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni va aksiz solig'ini to'lovchilarga nisbatan, shuningdek soliq to'lovchi tugatilgan xollarda va (yoki) berilgan pasaytirilgan

solig stavkasini qo'llash uchun ikki va undan ortiq tadbirkorlik sub'ekti o'rtasida soliq to'lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarini ajratish (bo'lish) faktlari aniqlangan taqdirda, tatbiq etilmasligi belgilab berildi.

Mazkur taklif norezidentlarga xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar uchun soliq stavkasida 50 foizli yengillik berish orqali iqtisodiy faoliyatni tartibiy rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Quyida keltirilgan ma'lumotlar esa mazkur me'yorning amaliy qo'llanishini cheklovchi shartlari va ularning institutsional asoslarini yoritadi.

2020–2024 yillar davomida foyda solig'i to'lovchilari sonining 12,4 foizga va tushumlar hajmining 63,6 foizga oshishi, shuningdek stavka pasaytirilishi natijasida imtiyozli to'lovchilar ulushining ko'payishi fiskal barqarorlikni mustahkamlab, soliq siyosatining rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, norezidentlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar sonining ortishi va aylanma solig'idan foyda solig'iga o'tgan korxonalar ulushining keskin oshishi investitsion jozibadorlikning kuchaygani, kichik va o'rta biznesning institutsional rivoji hamda iqtisodiyotda innovatsion qiymat zanjirlari va makrodiversifikatsiyaning jadallashayotganidan dalolat beradi.

13-jadval

O'zbekiston Respublikasida foyda solig'i bo'yicha stavkani 50 % ga pasaytirish haqqi va undan foydalanishdagi cheklovlarni qo'llash yuzasidan ma'lumotlar³¹

t/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1.	Foyda solig'i to'lovchilari soni, ta	158 245	163 412	169 357	178 936	177 845
2.	Foyda solig'idan tushumlar, mlrd.so'm	32 187,3	34 526,4	37 649,9	40 778,9	52 658,7
3.	50 % ga pasaytirilgan stavkadagi foyda solig'i to'lovchilar soni, ming ta. Shundan:	-	-	-	11,0	11,9
4.	Norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun imtiyozga ega bo'lganlar soni ming ta	-	-	-	6,8	7,5
5.	Aylanma solig'i to'lashdan ilk bor foyda solig'i to'lashga o'tgan 10 mlrd.so'mgacha oborotga ega soliq to'lovchilar, ming ta	3,6	4,2	5,3	7,1	7,8
6.	Jami daromadi ilk bor 10 mlrd. so'mdan oshgan, biroq imtiyoz qo'llashlilik davridan 10 mlrd. so'mdan oshmagan oborotga ega soliq to'lovchilar, ming ta	-	-	-	4	5
7.	Imtiyoz qo'llanilmagan soliq to'lovchilar, ta	-	-	-	21 753	27 545

³¹ O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

Tadqiqotda taklif etilgan mexanizm norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlarda fiskal yukni kamaytirish orqali korxonalar uchun yangi moliyaviy resurslar yaratib, investitsion faollikni oshiradi ba xizmatlar sohasida innovatsion, raqamli hamda yuqori qo'shilgan qiymatli biznes-modellarning kengayishiga zamin yaratadi. Ushbu yondashuv kichik va o'rta biznes uchun qo'shimcha imkoniyatlar shakllantirib, imtiyozlardan noqonuniy foydalanish ehtimolini kamaytirgan holda soliq siyosatida maqsadli rag'batlantirishni kuchaytiradi ba natijada fiskal barqarorlik, investitsion jozibadorlik ba makrodiversifikatsiya oshib, xalqaro standartlarga mos komplaens va korporativ boshqaruv tamoyillarining joriy etilishi tezlashadi. Ishlab chiqilgan taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 337-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 13-fevral 15-17133-sonli ma'lumotnomasi).

2. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tovarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromatlari umumiy daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa degan so'zlari o'rniga, tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromadlar almashtirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan taklifning mohiyati shundan iboratki, eksportga yo'naltirilgan realizatsiya daromadlarini soliq bazasida alohida mezon sifatida belgilash ishlab chiqarish va tashqi savdo faoliyatini rag'batlantirib, soliq tizimida aniqlik hamda shaffoflikni ta'minlaydigan muhim fiskal mexanizmni shakllantiradi. Ushbu mexanizmni amaliyotga joriy etish natijasida eksport qiluvchi korxonalar uchun foyda solig'i va aylanma solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytiruvchi imtiyozlar tovar va xizmatlar realizatsiyasidagi eksport ulushidan qat'i nazar qo'llanilishi belgilandi.

14-jadval ma'lumotlari 2020–2024 yillarda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari soni 15,9 foizga, tushumlar esa 30 foizga oshgani fiskal bazaning kengayib, barqaror daromad oqimi shakllanganini ko'rsatadi; eksport hajmining 88 foizga ortishi va to'lovchilarning eksporti ikki barobardan ko'proq ko'paygani ishlab chiqarish samaradorligi va tashqi bozorlarga integratsiyaning kuchayganidan dalolat beradi. 2023 yildan joriy etilgan yangi fiskal-institutsional mexanizm soliq bazasining shaffofligini oshirib, korxonalar ixtiyorida ko'proq moliyaviy resurs qolishiga imkon yaratib, investitsion imkoniyatlar va iqtisodiy modernizatsiyani jadallashtirdi.

Mazkur taklifning iqtisodiy samaradorligi, avvalo, eksportni rag'batlantirish orqali ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirib, valyuta tushumlari ba makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda namoyon bo'ladi, shu jarayonda esa korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etishga va mahsulot sifatini oshirishga undalib, innovatsion modernizatsiya sur'atlari tezlashadi.

**O‘zbekiston Respublikasida 2022-2024 yillarda aylanmadan olinadigan
soliq to‘lovchilar uchun eksport operatsiyalari bo‘yicha imtiyozlar
mezonlaridagi o‘zgarishlar yuzasidan ma’lumotlar³²**

t/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1.	Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilari soni, ming ta	310,7	328,6	345,4	369,5	360,2
2.	Aylanmadan olinadigan soliqdan tushumlar, mlrd.so‘m	2 143,2	2 388,7	2 624,5	2 377,1	2 786,8
3.	Eksport xajmi, mlrd.AQSh doll.	14,3	16,5	19,6	24,4	26,9
4.	Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilarning eksportdagi ishtiroki, % da	5,8	6,0	6,2	5,7	5,6
5.	Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilarining eksport xajmi mlrd.AQSh doll.	0,83	0,99	1,21	1,38	1,5
6.	Aylanmadan olinadigan soliq bazasidan eksport operatsiyalarini inobatga olish mezon	Eksportdan olingan daromad ulushi 15% va undan yuqori bo‘lsa	Eksportdan olingan daromad ulushi 15% va undan yuqori bo‘lsa	Eksportdan olingan daromad ulushi 15% va undan yuqori bo‘lsa	Ulushidan qat’iy nazar ozod etish	Ulushidan qat’iy nazar ozod etish
7.	Eksport evaziga aylanmadan olinadigan soliq imtiyozi xisobiga soliq to‘lovchi ixtiyorida qolgan summa, mlrd. so‘m	31,4	39,7	46,3	55,1	60,2
8.	Eksport evaziga foyda solig‘idan imtiyoz xisobiga soliq to‘lovchi ixtiyorida qolgan summa, mlrd. so‘m	135,6	162,8	197,2	231,3	256,9

Eksport daromadlarining soliq tizimida alohida mezon sifatida e’tirof etilishi hududiy klasterlarning faollashuvini, yangi ish o‘rinlarining yaratilishini ba ishlab chiqaruvchilarning tashqi iqtisodiy aloqalarda faol ishtirokini kuchaytirib, iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini chuqurlashtiradi. Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O‘RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 464-moddasida tasdiqlanib amaliyotga joriy qilindi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 dekabrda Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4929-son Qarorining 4-bandida belgilangan: “To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirish maqsadida qiymati 250 milliard so‘m miqdordan oshadigan xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarining davlat tomonidan qoplab berish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasini ijrosini ta’minlash maqsadida “Xorijiy va mahalliy investorlarning qiymati 200 milliard so‘mdan oshadigan investitsiya loyihalarini

³² O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi Nizom ishlab chiqildi.

15-jadval

2020-2024 yillarda Toshkent viloyatida maxsus iqtisodiy zonalarga jalb etilgan salmoqli investitsiyalar haqida

MA'LUMOT³³

t/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Viloyatda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar soni	3	4	4	5	5
2	Maxsus iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni	18	23	27	33	38
3	Maxsus iqtisodiy zonalarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar, mln. AQSh dollari	65,0	77,5	23.0	37.0	50.0
4	Maxsus iqtisodiy zonalarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarda 3,0-10,0 mln. AQSh dollari hajmdagi loyihalar soni	3	5	12	11	9
5	Maxsus iqtisodiy zonalarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarda 10,0 mln. AQSh dollaridan ortiq hajmdagi loyihalar soni	5	7	9	21	26

2020–2024 yillarda Toshkent viloyatidagi maxsus iqtisodiy zonalarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2020 yildagi 65 mln dollardan 2021 yilda 77,5 mln. dollarga oshib, keyingi yillardagi pasayishiga qaramay barqaror dinamikani saqlagan bo'lsa, yirik (10 mln. dollardan ortiq) loyihalar sonining 5 tadan 26 tagacha ko'payishi hamda o'rta hajmli loyihalarning kengayishi investitsion portfelning sifat va tarkibiy diversifikatsiyasini kuchaytirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, korxonalar sonining 18 tadan 38 tagacha ortishi hududiy ishlab chiqarish salohiyatining sezilarli kengayganidan dalolat berib, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi, eksport salohiyatining oshishi va klasterlashuv jarayonlarining jadallashuviga xizmat qilgan.

Ushbu taklifning iqtisodiy samaradorligi infratuzilmaviy xarajatlarning davlat tomonidan qoplanishi orqali investitsiya loyihalarining moliyaviy yukini kamaytirib, kapital oqimlari va investitsion jozibadorlikning oshishiga xizmat qilgani holda hududiy rivojlanishda iqtisodiy asimmetriyaning qisqarishi va diversifikatsiya jarayonlarining tezlashuviga zamin yaratadi. Taklifning amaliyotga joriy etilishi esa o'rta va yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlab, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishini jadallashtirib, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytiruvchi institutsional-fiskal boshqaruv modelining shakllanishiga olib keladi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to'g'risida" gi Nizomni tasdiqlash haqidagi VMQ-306-son Qarorida o'z aksini topgan.

³³ O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

4. Erkin iqtisodiy zonasi hududini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish xamda import o‘rnini bosuvchi, eksportbop ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish maqsadida muxandislik-kommunikatsiya va yo‘l infratuzilmasi bilan ta’minlash lozim bo‘lgan ob’ektlar ro‘yxatini shakllantirish va tasdiqlash, hududlardagi 200 gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘tkazish, ularga soliq imtiyozlari berish taklifi asoslandi.

Halqaro amaliyotda investitsion muhit jozibadorligini «McKinsey & Co» uslubiyoti asosida baholash bo‘yicha keng tadqiqotlar olib borilgan. Unda 3 ta asosiy o‘lchov indikatoridan foydalanilib tahlil qilinadi va har bir indikator 10 ballik shkala asosida baholanuvchi omillardan tashkil topadi (16-jadval).

16-jadval

Toshkent viloyatida 2020-2024 yillarda EIHlarning investitsion muhit jozibadorligi darajalari³⁴

<i>T/r</i>	<i>Indikatorlar</i>	<i>Sanoat tarmog‘i</i>	<i>Qishloq xo‘jaligi</i>	<i>Kichik biznes</i>	<i>Xizmat ko‘rsatish sohasi</i>
1.	Salohiyat				
1.1	EIHda ishlab chiqarish dinamikasi, (ball)	8,7	7,3	8,9	8,1
1.2	So‘nggi 3 yilda yangi ishlab chiqarish loyihalari soni, (ta)	4	6	7	6
1.3	Mahalliy xom ashyo bilan ta’minlanganlik, (ball)	9,2	9,7	9,5	9,4
1.4	EIHning importdagi ulushi, (%)	9,12	6,75	7,87	6,31
1.5	Hududiy sanoatlashuv darajasi, (gektar)	9,5	9,5	9,5	9,5
2.	Tarkib				
2.1	Infratuzilmaga kirish, (%)	82,3	74,5	80,6	68,2
2.2	EIH texnologik parkida eskirgan uskunalar ulushi, (%)	17,4	21,2	24,8	18,7
2.3	Umumiy bandlikda EIHning ulushi, (%)	6,8	4,7	5,9	6,3
2.4	YaHMda EIHning ulushi, (%)	11,1	7,4	10,6	9,8
2.5	Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasi, (%)	91,5	89,8	92,0	90,6
3.	Tashqi muhit				
3.1	Jahon Banki «Doing Business» metodikasi bo‘yicha iqtisodiy erkinlik bahosi, (ball)	5,7	5,2	6,3	5,8
3.2	Siyosiy holat, (ball)	5,1	4,6	5,4	4,8
3.3	Mehnat bozoridagi taklif, (ball)	5,6	5,2	6,1	5,4
3.4	Soliq imtiyozlari va preferensiyalar intensivligi, (ball)	4,8	4,3	5,1	4,6
Jami		82,25	65,2	76,125	73,125

³⁴ Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Taqdim etilgan jadval Toshkent viloyatida EIHlarning investitsion muhit salohiyati yuqori ekanini ko'rsatsa-da, texnoparklardagi eskirgan uskunalar ulushi va tashqi muhit indikatorlarining o'rtacha darajasi hududiy rivojlanish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini bildiradi. Shu bois EIH hududini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha takliflar import o'rnini bosuvchi hamda eksportbop ishlab chiqarish quvvatlarini kuchaytirib, YaHM va bandlik ulushining oshishiga, shuningdek soliq imtiyozlari orqali xususiy kapital oqimining ko'payishi va uzoq muddatli investitsion jozibadorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur taklifning iqtisodiy samaradorligi, avvalo, EIHlar doirasida hududiy kengayish orqali aglomeratsiya samaradorligini kuchaytirib, resurslarning konsentratsiyasi natijasida tarmoqlararo kooperatsiya, mehnat unumdorligi va import o'rnini bosuvchi hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatining kengayishiga xizmat qiladi. Mazkur taklifning amalga oshirilishi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish traektoriyasini shakllantirib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-yanvardagi PQ-3-son qarorida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi.

5. Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga ortiqcha qo'shilgan qiymat solig'i summasi yetti kun ichida qoplab berish tartibini joriy etish va bunda, kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra qoplangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi asossizligi aniqlangan taqdirda, mazkur summa belgilangan tartibda undirish tartibi ishlab chiqildi.

17-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligida amalga oshirilgan tadbirlar ijrosi yuzasidan ma'lumotlar³⁵

t/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1.	Faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar soni, ta	18	20	23	25	27
2.	Maxsus iqtisodiy zonalaridagi faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, ta	662	712	963	1071	1102
3.	Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilarining to'lagan QQS, mlrd. so'm	421,3	498,1	553,0	615,5	730,2
4.	Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari tomonidan ortiqcha to'langan va qaytarilgan QQS summasi, mlrd. so'm	-	43,7	131,1	165,3	171,6
5.	Kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra qoplangan QQS summasi, mlrd. so'm	-	4,2	12,7	14,4	17,0
6.	Mazkur tartib orqali maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari ixtiyorida qolgan summa, mlrd. so'm	-	136,4	409,2	435,8	541,6

³⁵ O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

17-jadval tahlili 2020–2024 yillar davomida maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan to‘langan QQS hajmi barqaror ortib, 421,3 mlrd so‘mdan 730,2 mlrd so‘mgacha yetgani, shuningdek yangi tartib joriy etilgach ortiqcha to‘langan summalar va kameral tekshiruvlar orqali qaytarilgan mablag‘larning bosqichma-bosqich ko‘paygani fiskal nazoratning izchil kuchayganini ko‘rsatadi. 2022–2024 yillarda qaytarilgan mablag‘lar 131,1 mlrd so‘mdan 171,6 mlrd so‘mgacha oshgan bir paytda, 2024 yilda 541,6 mlrd so‘mlik mablag‘ning korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligi, likvidlik darajasi va ishlab chiqarish salohiyatining sezilarli kengayganidan dalolat beradi.

Mazkur ilmiy yangilik likvidlik nazariyasi va kapital aylanish tezligi tamoyillariga asoslanib, maxsus iqtisodiy zonalar korxonalarida aylanma mablag‘larning tezkor tiklanishini ta‘minlab, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, yetti kunlik QQS qaytarish mexanizmi investitsion muhit jozibadorligini kuchaytirib, xorijiy kapital oqimlarini faollashtiruvchi va fiskal intizomni mustahkamlovchi barqaror institutsional poydevorni shakllantiradi. Mazkur taklifl O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 sentyabrdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5243-son Qarorida aks etgan.

XULOSA

1. Erkin iqtisodiy hududlar zamonaviy iqtisodiyotni transformatsiya qiluvchi institutsional va fiskal platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular nafaqat soliq imtiyozlari vositasi, balki innovatsion klasterlar, raqamli infratuzilma va tarmoqlararo integratsiya jarayonlarining asosiy maydoni hisoblanadi. Bu orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy diversifikatsiyani jadallashtirish imkoni yaratiladi.

2. Erkin iqtisodiy hududlarning nazariy asoslari iqtisodiy erkinlik, fiskal rag‘batlantirish va tarmoqlararo kooperatsiyani uyg‘unlashtiruvchi konseptual tamoyillarga asoslanadi. Ushbu yondashuv EIHLarni faqat soliq yoki huquqiy imtiyozlar emas, balki kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday modelda kapital aylanishi tezlashadi, resurslardan samarali foydalanish ta‘minlanadi va iqtisodiy barqarorlik oshadi.

3. Mualliflik yondashuviga ko‘ra, EIHLarning samaradorligi soliq adaptatsiyasi, institutsional uyg‘unlik, raqamli integratsiya va innovatsion klasterlar asosida ta‘minlanadi. Soliq siyosati KPI ko‘rsatkichlari asosida dinamik tarzda moslashtiriladi va bu orqali fiskal barqarorlik ta‘minlanadi. Raqamli ekotizim, elektron soliq monitoringi va Big Data instrumentlari orqali boshqaruvning shaffofligi va tezkorligi oshadi.

4. EIHLar milliy va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jonlantiruvchi kompleks mexanizm sifatida ko‘riladi. Ular orqali sanoat quvvatlari

kengaytiriladi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi. Kichik sanoat zonalari esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish va endogen resurslardan foydalanishning transformatsion vositasi sifatida xizmat qiladi.

5. O‘zbekiston erkin iqtisodiy hududlarida moliyaviy vositalar va investitsiyalar manbalari diversifikatsiyalangan hamda ko‘p bosqichli tizim sifatida shakllangan. Ular orasida davlat kafolatlari, xususiy kapital, xorijiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik modellarining uyg‘unlashuvi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlamoqda. Ayniqsa, ventur moliyalashtirish, raqamli grant platformalari va blokcheyn asosidagi smart-kontraktlar kabi zamonaviy vositalar innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratmoqda.

6. Moliyalashtirish jarayonida institutsional-pluralistik, resurs asimmetriyasi muvozanatlashuvi va vertikal integratsiyalashgan model kabi nazariy yondashuvlarning uyg‘unligi EIHlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvlar davlat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini samarali birlashtirishga imkon yaratadi. Raqamli moliyaviy infratuzilma, sun‘iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining qo‘llanishi esa moliyalashtirish jarayonining shaffofligi va tezkorligini oshiradi.

7. O‘zbekiston EIZlarida davlat, xususiy va xorijiy kapital hamda DXSh mexanizmlarining uyg‘unligi muvozanatli sarmoya oqimini ta‘minlab, 2019–2024 yillarda TTXI 35–40% ulush bilan eksportga yo‘naltirilgan loyihalarning asosiy manbai sifatida ajralib chiqdi. Davlat investitsiyalari infratuzilma barqarorligini kafolatlar ekan, xususiy kapitalning tezkorligi va innovatsiyaga moyilligi umumiy samaradorlikni sezilarli oshirmoqda.

8. Moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish EIHLarda investitsiya muhitini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Korporativ obligatsiyalar, venchur fondlar, sukuk va raqamli platformalar orqali kapital bozorining chuqurlashuvi ta‘minlanmoqda. Bunday xilma-xillik investorlar uchun risklarni kamaytirib, resurslardan foydalanish erkinligini kengaytirmoqda.

9. Erkin iqtisodiy hududlarda qo‘llanilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari qisqa muddatli fiskal yengillikdan tashqari, uzoq muddatli investitsion samaradorlik, eksport salohiyatining kengayishi va yangi ish o‘rinlari yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda. 2020–2024 yillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, imtiyozlar hajmi ortishi bilan birga investitsiya oqimlari ham ko‘paygan, yangi korxonalar va innovatsion loyihalar soni sezilarli darajada oshgan.

10. Erkin iqtisodiy hududlarda norezidentlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun soliq stavkasini 50 foizga pasaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan mexanizm fiskal yukni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va xizmatlar sektorida yangi investitsiya oqimlarini rag‘batlantirish imkonini bermoqda. Bu yondashuv xizmatlar bozorida innovatsion biznes-modellarni

shakllantirish, raqamli xizmatlar va klaster tipidagi integratsiyalashgan xizmat tarmoqlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

11. Soliq stavkasining pasaytirilishi orqali EIHlar faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy multiplikator samarasi yuzaga kelmoqda. Ya'ni, fiskal yuk kamayishi natijasida korxonalar tomonidan yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi bandligi oshadi va real daromadlar ko'payadi. Bu esa ichki iste'mol bozorida talabni kuchaytirib, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/29.12.2023.I.175.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БАНКОВСКАЯ-ФИНАНСОВАЯ АКАДЕМИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

КУЗИЕВ РАВШАН РАМАЗАНОВИЧ

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН ПОСРЕДСТВОМ
ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ**

08.00.07 – “Финансы, денежное обращение и кредит”

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

город Ташкент – 2025 год

Тема докторской диссертации (DSc) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за №B2025.1.DSc/Iqt855.

Диссертация выполнена в Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsuc.uz) и информационно-образовательного портала «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный консультант: Жумаев Подир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Тураев Шавкат Шухратович
доктор экономических наук, профессор

Ашурова Насиба Батировна
доктор экономических наук, профессор

Абдуллаев Зафар Алижонович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский филиал Российского
экономического университета имени Г.В. Плеханова


Защита диссертации состоится 29 11 2025 года в 16:00 ч. на заседании научного совета DSc.22/29.12.2023.I.175.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете. Адрес: 100114, г.Ташкент, Малая кольцевая улица, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (регистрационный номер №209). Адрес: 100114, г.Ташкент, Малая кольцевая улица, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Автореферат диссертации разослан 14 11 2025 года.
(протокол реестра № 57 от «11» 10 2025 года).




Д.А. Рахмонов
Заместитель председателя Научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор экономических наук,
профессор


Н.Х. Абдурахмонов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, доцент


А.Р. Норов
Заместитель председателя научного
семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотatsiя диссертatsii доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертatsii. Совершенствование механизмов развития деятельности свободных экономических зон (СЭЗ) посредством финансовых инструментов во всем мире признается важным фактором устойчивого экономического роста и модернизatsii промышленности. В результате реформ, проведенных в последние годы, объем инвестиций, привлеченных через СЭЗ в Китае, составил 2,4 трлн. долларов США, обеспечивая 28% промышленного производства страны. В странах Европейского Союза валовая добавленная стоимость, созданная за счет деятельности СЭЗ, составляет 16-18% от общего экономического роста. В развитых странах широко используются механизмы кластеризatsii, финансирования инфраструктуры и фискальной поддержки, благодаря чему СЭЗ превращаются в конкурентоспособные инновatsионные индустрии. В 2024 году в Узбекистане в 28 СЭЗ осуществляли деятельность свыше 2 100 предприятий, и для повышения их эффективности существует необходимость разработки научно обоснованных подходов к диверсификatsии финансовых инструментов и их системному управлению.

В мировой практике обеспечение устойчивости и инвестиционной привлекательности СЭЗ путем совершенствования механизмов управления финансовыми ресурсами в их деятельности рассматривается как актуальная задача. В последние годы международными финансовыми институтами проводятся комплексные исследования по разработке и внедрению в практику отдельных моделей финансирования для СЭЗ. Важную роль в этом играют внебюджетное финансирование, развитие инфраструктуры на основе государственно-частного партнерства и финансовая поддержка экспортоориентированных проектов. Научные исследования служат важным инструментом определения финансовой эффективности в этом направлении, анализа рисков и формирования стратегических подходов. В результате оптимизatsiя деятельности СЭЗ посредством научно обоснованных финансовых механизмов рассматривается как неотъемлемая часть нatsиональной экономической политики.

Повышение эффективности финансовых инструментов в развитии свободных экономических зон в Узбекистане, их интерпatsия в систему комплексного экономического управления стали актуальным вопросом. Сегодня для стимулирования инвестиционной активности субъектов, действующих в этих регионах, важное значение приобретают механизмы обеспечения инфраструктурного финансирования, мобилизatsии внебюджетных источников и перераспределения кредитных ресурсов. Для расширения масштабов производства, повышения экспортного потенциала и продвижения технологической модернизatsii в свободных экономических зонах требуется развитие финансовой инфраструктуры, включая расширение инструментов институционального финансирования, финансовых гарантий, снижающих инвестиционные риски, и механизмов

грантов при сотрудничестве с международными донорами. С этой точки зрения совершенствование финансирования деятельности СЭЗ на институциональной основе и разработка его концептуальной модели выступает в качестве одной из приоритетных задач национальной экономической политики.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан УП-5270 от 26 октября 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию и повышению эффективности деятельности свободных экономических зон”, УП-6061 от 28 августа 2022 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию и повышению эффективности деятельности свободных экономических зон”, УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, УП-27 от 17 март 2023 года “О Стратегии реформирования системы государственных финансов”, постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-4477 от 20 декабря 2022 года “О внедрении новых механизмов финансирования инвестиций”, ПП-110 от 5 апреля 2023 года “О мерах по улучшению инвестиционного климата в свободных экономических зонах”, ПП-3518 от 10 августа 2022 года “О финансовой поддержке экспортно-ориентированных проектов в свободных экономических зонах”, постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №878 от 30 октября 2018 года “О мерах по финансовой поддержке субъектов предпринимательства, осуществляющих деятельность в свободных экономических и малых промышленных зонах”, №615 от 26 июля 2019 года “О механизмах финансирования развития инфраструктуры свободных экономических зон”, №451 от 21 августа 2023 года “О мерах по совершенствованию механизмов повышения эффективности свободных экономических зон”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирования инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Научно-исследовательские работы по вопросам развития деятельности свободных экономических зон посредством финансовых инструментов широко изучаются ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями. В частности, Департамент по фискальным вопросам при Международном валютном фонде, Экспертная группа по инвестициям и свободным зонам Организации экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций по промышленному развитию (ЮНИДО), Отдел конкурентоспособности и инноваций Всемирного банка, а также Институт зон свободной торговли при Национальном университете Сингапура, Отдел европейской финансовой инфраструктуры Польского

экономического университета, Научно-исследовательский центр Университета Мармара в Турции и отделения KDI (Korea Development Institute) в Южной Корее, специализирующиеся на анализе инновационной инфраструктуры и свободных экономических зон, проводят актуальные научные разработки в этом направлении.³⁶

В результате научных исследований, проведенных в мире по актуальным вопросам финансовой поддержки свободных экономических зон и обеспечения их устойчивого развития, обоснованы следующие выводы: установлено, что государственные финансовые гарантии, направленные на свободные экономические зоны, служат ускорению развития региональных промышленных кластеров (Отдел конкурентоспособности и инноваций Всемирного банка); эффективность инструментов финансирования на основе государственно-частного партнерства в привлечении инвестиций в свободные зоны обоснована на основе опыта Южной Кореи и Турции (KDI - Korea Development Institute, Университет Мармара); показано, что экономический эффект грантов и субсидий, выделяемых на развитие инфраструктуры в свободных экономических зонах, зависит не только от объема инвестиций, но и от качества финансового управления и институциональных реформ (UNIDO); возможность повышения инвестиционной устойчивости за счет локализации механизмов финансирования была проанализирована на основе польского опыта Европейского Союза (Польский экономический университет); установлено, что обеспечение дополнительными кредитными и гарантированными финансовыми инструментами предприятий свободных экономических зон с легкой фискальной нагрузкой напрямую влияет на повышение их производственного и экспортного потенциала (Организация экономического сотрудничества и развития - ОЭСР).

Степень изученности проблемы. Отдельные теоретические и практические аспекты поддержки деятельности свободных экономических зон посредством финансовых инструментов проанализированы в научных исследованиях зарубежных ученых-экономистов - М.Портера, Дж.Стиглица, Д.Родрика, П.Кругмана, Дж.Сакса, А.Смита, К.Омаэ, Х.Чена, А.Плёмовских, В.Иноземцева, Н.Егорова, И.Майорова, Г.Белякова, Л.Шишкина и других³⁷.

